



FRANSUZ ADABIYOTIDA IBN SINONING ILMIY OBRAZI TALQINI

Orziyeva Farangiz Qurbon qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti

Xorijiy til va adabiyoti kafedrasi

IM-XTA-24 guruh talabasi

Saidova Zarina Saidovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasi

kafedrasi fransuz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqola buyuk mutafakkir olim, faylasuf, tabobat ilmining sultoni Ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyati haqida bo'lib, G'arb mamlakatlari adabiyotida, ayniqsa fransuz adabiyotida Ibn Sino obrazining shakllanishi, uning ilmiy va badiiy yondashuvlar asosida tasvirlanishi tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Mutafakkir, alloma, tibbiyat, faylasuf, ilmiy, adabiy, tabobat ilmining sultoni.*

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ НАУЧНОГО ОБРАЗА ИБН СИНЫ ВО ФРАНЦУЗСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Сайдова Зарина Сайдовна

*Преподователь французского языка Бухарского Государственного
Педагогического Института*

Аннотация. *В статье рассказывается о жизни и научной деятельности великого мыслителя, ученого, философа и султана медицинской науки Ибн Сины. Анализируется формирование образа Ибн Сины в западной литературе, особенно французской, и его изображение на основе научного и художественного подходов.*

Ключевые слова: *Мыслитель, учёный, медик, философ, учёный, литературовед, султан медицинской науки.*



INTERPRETATION OF THE SCIENTIFIC IMAGE OF IBN SINA IN FRENCH LITERATURE

Saidova Zarina Saidovna

French teacher at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article is about the life and scientific work of the great thinker, scientist, philosopher, and sultan of medical science, Ibn Sina. It analyzes the formation of the image of Ibn Sina in Western literature, especially French literature, and his depiction based on scientific and artistic approaches.

Keywords: Thinker, scientist, physician, philosopher, literary critic, sultan of medical science.

G'arbda Avicenna nomi bilan tanilgan Ibn Sino, o'z davrining eng buyuk faylasuf va tabiblaridan biri bo'lib, uning ilmiy qarashlari nafaqat Sharq dunyosida, balki Yevropa, xususan Fransiya ilmiy va adabiy muhitida ham chuqur iz qoldirgan olim hisoblanadi. Uning asarlari, ayniqsa Al-Qonun fi't-tibb (Tib qonuni), asrlar davomida Fransuz ilm-fan jamoatchiligi tomonidan o'rganilgan va qadrlangan[1]. Biz bugungi ushbu maqolamizda Ibn Sinoning Fransuz adabiyotidagi ilmiy obrazi, u qanday talqin qilinganligi va bu talqinlarning tarixiy asoslari haqida yoritamiz.

Ibn Sinoning asarlari o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinishi orqali Yevropaga kirib keladi. Xususan, uning Tib qonuni asari Jerard de Kremona tomonidan XII asrda tarjima qilinib, Parij universitetining asosiy darsliklaridan biriga aylanadi[2]. Bu tarjimalar orqali Ibn Sino nafaqat tabib, balki ilmiy tafakkur egasi sifatida ham G'arb ilm-faniga taniladi. Fransuz shifokori Arnau de Vilanova o'z tibbiy amaliyotida Tib qonuni asariga asoslanganini bir necha risolalarida eslatadi. Hattoki, Parijdagi Sorbonna kutubxonasida Avicenna asarining ko'plab nusxalari saqlanadi.

"Avicenna bizning Ustozimiz edi. Uning qonunlari kasallikni ko'z bilan ko'rganday aniqlaydi" – deydi Arnau de Vilanova.

XVIII asrda Volter, Didro, Holbax kabi Fransuz ma'rifatparvarlari Ibn Sinoni aql va tajriba asosida ilmiy haqiqatni izlagan alloma sifatida e'tirof etadilar. Deni Didro o'zining "Encyclopédie" asarida Avicennani islom dunyosining eng mashhur tabibi deb ataydi va uni G'arbdagi ilmiy an'analar bilan qiylaydi [3]. Bu talqinlarda Ibn Sino, ko'pincha, Aristotel izdoshi va ilm-fan timsoli sifatida ko'rsatiladi. Didro Avicennani Gippokrat va Galen bilan



bir qatorda qo‘yadi. Holbax esa uni “o‘rta asr zulmatida porlagan islomiy tafakkur yulduzi” deya atagan [2].

Volter esa Avicennaning ilmiy yondashuvini Aristotel va Dekart o‘rtasidagi ko‘prik sifatida talqin qiladi. U o‘zining *Philosophical Dictionary* asarida shunday yozadi:

“Aqlni diniy dogmalar bilan emas, tajriba bilan uyg‘unlashtirgan olim bo‘lsa, bu Avicenna edi.”

Bundan tashqari XIX asr fransuz romantiklari, jumladan Jorj Sand va Viktor Gyugo, Sharq donishmandlari obraziga qiziqish bildirganlar. Ular o‘z asarlarida Ibn Sino kabi tarixiy siymolarni bevosita tilga olmasalar-da, Sharq mutafakkirlarini timsollashtirishda Avicennaga o‘xshash obrazlardan foydalanganlar. Masalan, Viktor Gyugoning *Les Orientales* (Sharqiy fantaziyalari, 1829) to‘plamidagi “La Sultane favorite” she’rida Sharq donishmandi – oqsoqol, sohibi hikmat qahramon orqali Avicennaning umumlashtirilgan obrazi ko‘rinadi. Gyugo bu obrazni “hikmat kitoblari, tibbiyat va osmon ilmini o‘rgangan kishi” deb ta’riflaydi. Bu — Avicennaning arxivlardan chiqqan timsoli. Jorj Sandning *Consuelo* romanida esa ilmlı, ruhiy yuksak shaxs bo‘lgan Sharq allomasi tasviri Ibn Sinoga xos jihatlarni eslatadi: faqat ilmga emas, ruhiyatga, ma’naviy izlanishga urg‘u beriladi.

So‘nggi o‘n yilliklarda tarixiy romanlar va esseistikada Ibn Sino ko‘proq real tarixiy shaxs sifatida esga olinadi.

Misol uchun Amin Maaloufning *Samarkand* romanida Avicenna to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishtirok etmasa-da, uni tavsiflovchi quyidagi satrlar mavjud:

“Sharq shifokorlarining eng ulug‘i edi u. Samarkandlik allomalar unga sirdosh bo‘lishni orzu qilar edilar. Uning nomi — Avicenna.”

Yana bir misol, Michel Orcelning *Avicenne ou la route d’Ispahan* (2001) romanida Ibn Sino qahramon sifatida tasvirlanadi. Ushbu roman tarixiy badiiyat bilan to‘la bo‘lib, unda Ibn Sino siyosiy tazyiqlar ostida ilm izlagan, bilimni haqiqat deb bilgan inson sifatida tasvirlanadi:

“Men hukmdorlar xizmatida emasman. Men faqat bilimning xizmatidaman.”
(Avicenna, Orcel romanı)

Xulosa

Xulosa qilib aytganda Fransuz adabiyotida Ibn Sino ilmiy obrazi tarixiy, falsafiy va estetik kontekstda turli shakllarda talqin qilingan. Uning ilmiy merosi, ayniqsa ma’rifatparvarlik va zamonaviy davr adabiyotida yuqori baholangan. U nafaqat Sharq tafakkuri mahsuli, balki butun insoniyat tafakkuri uchun umumiyligini qadriyatga aylangan allomadir. Ibn Sino obrazining Fransuz adabiyotida



shakllanishi – bu ilm-fan, madaniyat va tafakkurning uzviy bog‘liqligining yorqin ifodasidir. Fransuz adabiy va ilmiy tafakkurida Ibn Sino obrazining shakllanishi bir necha asrni o‘z ichiga oladi. U ilmiy bilimlarning G‘arbgaga kirib kelishida muhim vosita bo‘lib, fransuz ziyolilari uchun har doim aql, tafakkur va ma’naviyat timsoli bo‘lib qolgan. Misollar orqali ko‘rildiki, Ibn Sino faqat tarixiy shaxs emas — u hanuzgacha yashovchi va G‘arb tafakkurida o‘z o‘rnini saqlab qolgan kuchli madaniy obrazdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Diderot, D. Encyclopédie, ou Dictionnaire raisonné des sciences, des arts et des métiers. Paris, 1751.
2. Gutas, D. Avicenna and the Aristotelian Tradition. Brill Academic Publishers, 2001.
3. Nasr, S.H. Science and Civilization in Islam. Harvard University Press, 1968.
4. Maalouf, A. Samarkand. Paris: JC Lattès, 1988.
5. Jolivet, J. La pensée islamique classique. Paris: Seuil, 1996.

